

ZEBO MIRZONING "NUR KUKUNLARI" SHE'RIY TO'PLAMI TAHLILI

Naimjonova Sitara Uyg'un qizi

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'quvchisi

Xaitov Xusniddin Xasanovich

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek she'riyatining mahoratli shoiralaridan biri Zebo Mirzoning "Nur kukunlari" she'riy to'plami tahlil qilingan. Asarda to'plamdan o'rin olgan she'rlar mavzusining uyg'unligi bilan bir qatorda shoira kechinmalarining yorqin aksini ko'rishimiz mumkin. To'plamdagi she'rlar badiiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: she'r, she'riyat, ijod, tahlil, shoira, tashbeh, misra, badiiy san'at, in'om, iste'dod, ruhiyat, kechinma, obraz.

АНАЛИЗ ПОЭТИЧЕСКОЙ О СБОРНИКА ЗЕБО МИРЗО "НУР КУНЛАРИ"

Аннотация: В данной статье читается и анализируется сборник стихов одного из мастеров узбекской поэзии Зебо Мирзы «Нур кукуллари». В произведении мы видим яркое отражение переживаний поэта, а также гармоничность темы стихов из сборника. Стихи в сборнике художественно проанализированы.

Ключевые слова: поэма, поэзия, творчество, анализ, поэт, ташбех, стих, искусство, дар, талант, дух, опыт, образ.

ANALYSIS OF ZEBO MIRZA'S POEMS COLLECTION "NUR KUKUNLARI"

Annotation: In this article, one of the master poets of Uzbek poetry, Zebo Mirza's poetry collection "Nur kukunlari" is read and analyzed. In the work, we can see a vivid reflection of the poet's experiences, as well as the harmony of the theme of the poems from the collection. The poems in the collection are artistically analyzed.

Key words: poem, poetry, creativity, analysis, poet, tashbekh, verse, art, gift, talent, spirit, experience, image.

Quyoshning yorqin nurlari insonlar qalbiga iliqlik olib keladi, ijodkorlar qalbiga bo'lsa ruhiy oziq. Har ikki shaxsni ham dilini yoritadi, yashnatadi. Biroq mehribon oftobjon shoir yuragiga bunday ne'matlar bilan boqishni kifoya deb bilmaydi. Ularning xilvatlarda qolgan qochoq ilhomiga jon kiritadi.

Shoirning xohish ehtiyojini qondiradi. Bunday ulug' in'omdan foydalana olish ham bir mahorat, iste'doddir.

Mana shunday qobiliyatni o'zbek zamonaviy she'riyatining o'tkir qalam egasi, Zebo Mirzo ijodida uchratishimiz mumkin. Bunga shoiraning "Nur kukunlari" she'riy to'plami yaqqol misol bo'la oladi. To'plam nomining o'zidayoq Zebo Mirzo quyoshdan berilgan in'omdan foydalangani ko'rinarli: Oftobning yorqin nurlaridan ilhomlangan shoira o'z ijodini quyosh va uning nurlariga qiyoslaydi. Quyoshni olov misol yonib turgan butun she'riyat, adabiyot deb bilsa, she'rlarini esa uning nurlarining kukunlari deb tasavvur etadi. She'rlar yig'ilib kitob bo'lsa, kukunlar yig'ilib nurni hosil qiladi. Keyin esa nurlar to'plana-to'plana quyosh bo'ladi, she'riyat shoir nigohida olovga aylanadi.

Quyosh nurlari ojiz ko'ngillarga mehr olib keladi. Bunda uning tarkibidagi kukunlar ham munosib rol o'ynaydi:

Sen – bo'g'zimga atalgan dorsan,

Peshonamga bitilgan qismat.

Men Xudodan maxfiy yo'llangan,

Qiyomatda ochilguvchi xat.

O'limiga tashna mahbusday,

O'limga zor ko'rdek zanjirband.

Intilaman men senga, ammo

Sen balandsan.

Judayam baland![1,22]

Shoira Zebo Mirzoning yuqoridagi "Dor" nomli she'rida ham umumiy, ham misraviy qiyoslash (tashbeh: bir narsani ikkinchi narsaga o'xshatish[2,4])ni ko'rish mumkin. Hatto she'r nomining o'zida ham o'xshatish yashirin. Mazmunan, she'rdagi obrazning ehtirosiga berilib, dor qiyosidagi yorning bo'g'ziga atalganligini, bir kun kelib baribir shu dorning o'ljasiga aylanishini ko'ra bila turib, o'zini dorga otishi va so'ng ta'kidlab, "balandsan" deb xo'rsinishi namoyon etilgan. She'r davomida esa o'ziga xos kuchli tashbeh bilan birga ishlatilgan so'roq gapga duch kelamiz. Qanchalik o'rinliligi esa misralarda namoyon:

Qurbonlikka atalgan baxtday

So'ramayman: "Nechun?", "Nega-man?"

Intilaman senga najotday,

Seni o'lim kabi sevaman[1,22].

O'lim kabi sevish. Eng e'tiborli yeri mana shunda. Sababi o'limni seva olish bu o'zi bir katta tushuncha, katta tuyg'u. Shoira esa o'z obraziga buni

sig'dira, singdira olyapti. Va shu bois ham ijodidagi yashirin jasorat keyingi misralarida ko'zga tashlanyapti.

Mahoratli tarjimon, yozuvchi, shoir Nurali Qobul: "...dunyoda eng go'zal tuyg'u – ayollarga muhabbatdir. Insonning baxti ham, fojiasi ham shundan boshlanib, shunda tugaydi!.." – deydi [3,1].

Quyidagi she'riy parchada ham ayni ayol qalbi kechinmalari aks etganligini ko'rishimiz mumkin.

Titrab uyg'onaman...

Tun.. allamahal...

Etagida xazon, uxlaydi yo'lak.

Ovozing... Qaylarda axir ovozing?..

Ko'ksimga bosh qo'yib xo'rsinar yurak...[1,52]

Zebo Mirzo yaratgan va uni qalban his etgan obrazi ham, o'zining oh-u faryodi va yoki muhabbati bilan, ishq yakunida yo odamni baxtga, yoki fojiga olib boradi. Shoira parchada nafaqat bularni, balki tabiat tasvirini ham mujassam etgan: ayol titrab uyg'onadi, tunda qarasa etagi xazonga to'lgan yo'lak uyquda. Tabiat hamda ruhiyat uyg'unligi misralarni yanada go'zallashtirgan.

Zebo Mirzo hozirgi zamonaviy o'zbek she'riyatida o'z she'rlari orqali yuraklarga kirib borayotgan o'tkir qalam sohibi. Shoira ruhiyatini, umuman uning ijodini bezagan ulug' dard-u g'am tabiatga qiyoslanadi. Mana shu ruhiyatni manzaralarga singdirilishi, ularda aks ettirilishi shoiraning yana bir yutug'idir. Zero bunga tabiiylik jo bo'lgan:

Mayli, ketgil...

Nomozshomgullar

Oy nurida yig'lagan kabi

Nigohingdan bitta nur tilab,

Pichirlaydi ilinjim labi.

Qaramaysan izingni yuvar

Ko'zlarimdan oqqan sog'inch-may[1,83].

Shoiraning nomsiz she'ridan keltirilgan parchada ham, qahramonning nomozshomgulga o'xshatilib, uning oy nurida yig'lagan ko'yi yor nigohidan bir nur tilab qolishi – ruhiy kechinma hamda tabiatning birlashuvi kabi, qiyoslangan. She'r hissiyotga limmo-lim xazinadir. Ammo har galgi histuyg'ularni boshqacha qilib aytish – shoirlarning mahoratidan dalolat. Yuqoridagi she'rda ham ilinchning pichirlashi ya'ni labidan chiqqan past ovozi Zebo Mirzo mohirligidan belgi.

"...So'z keladi. So'zlar ham osmondan tushadi, agar ko'nglingiz osmonga yetgan bo'lsa... Ijod bu lloh bilan sirlashuvdir. She'r bu tazarru, ko'z

yoshi, munojot va hatto isyon ham bo'lishi mumkin, ko'nglidan yengilgan inson uchun. Biroq bu hol shu lahzada, shu soniyada Iloh va Inson qalbi o'rtasidagi hol, sir. Uni o'zgalar o'qishi shart emas!"[4,1] – deydi shoira Zebo Mirzo, muxlislari bilan bo'lgan suhbatda ularning: "Siz nima uchun yozasiz?" – degan savoli uchun bergan javobida. Shoiraning ijodida ham Iloh va inson qalbi o'rtasidagi tafakkuri va kechinmasining mohirlik bilan yozilganligi, so'zi so'ngida aytilgan, "o'zgalar o'qishi shart emas" degan jumlasiga sira o'rin qoldirmaydi. Buni biz shoirona kamtarlik deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi. Bu fiklarni o'qib shoir qalbi naqadar beozor, naqadar beg'ubor va o'zgacha ekanligiga yana birbor guvoh bo'lishimiz mumkin. Yana shoira: "Aslida yozuvchi – musavvir. Inson ruhiyatining musavviri", – deydi o'sha suhbatda. Chindan ham, har qanday She'rni o'qimaylik, unda odamlar kechinmasi, o'z ruhiyatining aksini ko'ramiz.

Keting,

Sizga ehtiyojim yo'q!

Sevib bo'ldim Sizsiz o'limni.

Yana ming yil yashasangiz ham,

Tushunmaysiz mening ko'nglimni[1,68].

Zebo Mirzoning ushbu she'ridan keltirilgan parchasida ham inson ruhiyatining sof aksini ko'rishimiz mumkin. Sababi faqatgina musavvir, shoir biz hayotda ko'rmaydigan, ushlab, tutib bo'lmaydigan, ammo seza oladigan hissiyotlarimizning rasmini chiza oladi. Tasvirlay biladi. Dardchil tuyg'ularning uyg'unligi ham mana shunday qog'ozga tushuriladi.

Ammo bildim.

Siz butkul boshqa!

Buloqdirsiz – sokin va beg'am.

Anglamaysiz, bir kuni aytmay,

Poyingizda suvsab o'lsam ham[1,69].

Yuqoridagi misralarda esa kechinma, ruhiyat bilan birgalikda shoiraning badiiy ilmi, ya'ni badiiy san'atlardan o'rinli foydalanganligi e'tiborimizni tortadi. Yaratilgan obraz o'z yorini buloqqa qiyoslab (tashbeh), buloqdayin sokin va beg'am ekanligini, bir kun kelib esa poyida suvsab, o'lsa ham uni tushunmasligini aytadi. Shu xususda, Zebo Mirzoning "Nur kukunlari" she'riy to'plamini ham qaysidir ma'noda "kechinmalar bulog'i" deyishimiz mumkin.

Ko'rmaysan, ko'rmaysan

Sarxushsan, labing

Totarkan yot ishning

Toza xunalarin;

Sening boshing uzra

Yog'ila boshlar

Mening tuproq jismim –

NUR KUKUNLARI...[1, 84]

Yoriga begona bo'lgan ishqning qonin totishini ko'rish, so'ng uning boshi bo'ylab o'zining tuproqqa aylangan jismini Nur kukunlari kabi sochilishini aytish, bu qahramonning rashkidandir. To'plam kitob va shu she'r nomiga aylangan. Nur kukunlari ham hatto asardagi obraz ruhiyatining iztiroblaridan dalolat. "Shoira she'rlari ko'z bilan emas, qalb bilan idrok etib mutolaa qilishni talab etadi", – deya ta'kidlaydi O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron [5, 6].

Yuqorida aytganimiz kabi "kechinmala bulog'i" bo'lgan ushbu to'plamni o'qish, ayniqsa, dardchil odamlar qalbiga, orom baxsh etadi, ruhiy yengillik beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirzo Z. Nur kukunlari. –Toshkent:, Yangi asr avlodi. 2004. –B. 22, 22, 53, 83, 68, 69, 84.
2. Asallayev A. Badiiy san'atlar. –Toshkent:, Tafakkur. 2015. –B. 4.
3. Qobul N. @Elektron_kutubxona. 2022. –B. 1.
4. Subxon Sh. –Toshkent:, Ziyoz.uz Kutubxonasi. 2015. –B. 1.
5. Mirzo Z. Ishq. –Toshkent:, Akademnashr. 2011. –B. 6.